

**“BO’LAJAK BOSHLANG’ICH SINIF O’QITUVCHISINING PERSEPTIV QOBILIYATINI
RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI”**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Pedagogika va Psixologiya mutaxassisligi
2 - bosqich magistranti*

Kamolova Ozodaxon Muzaffar qizi

Tel raqam: +998978260208

Email address: kamolovaozodaxon27@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchisining perseptiv qobiliyatni rivojlantirish mexanizmlari haqida nazariyalar, ushbu perseptiv qobiliyatni rivojlantirish yuzasidan fikrlar, kasbiga oid mahoratini yuksaltirishda ham pedagogik, ham psixologik nazariyalar berish, hissiy idrokni yuksaltirish hamda bo’lg’usi boshlang’ich sinf o’qituvchisining qo’l ostidagi tarbiyalanuvchilari bilan ishlash mobaynida yuzaga keladigan kamchiliklar (psixologik, fiziologik va jismoniy) yuzasidan to’g’ri va aniq fundamental yo’l-yo’riqlar ko’rsatish hamda ularga qo’yilayotgan talablar haqida fikr yuritilgan.*

Kalit So’zlar: *o’qituvchi, perseptiv qobiliyat, hissiy idrok, impatiya, mahorat, ta’lim-tarbiya, tarbiyalanuvchi, kasbiy sifatlar, pedagogik faoliyat, mantiq, mexanizm.*

Jamiyatimizda bog’cha tarbiyachisi, maktab muallimi, oliygohlarning professor-o’qituvchilari va ilmiy-ijodiy ziyolilarni bugun biz intilayotgan Uchinchi Renessansning to’rt tayanch ustuni deb e’tirof etmoqdamiz .

Yosh o’qituvchi avvalambor, kasbiy sifatlar haqida to’liq tushunchaga ega bo’lishi va shu sifatlar yosh kadrda shakllangan bo’lishi, uni kundalik faoliyatida to’g’ri qo’llay bilishi kerak. O’qituvchi hayotining natijasi va muvaffaqiyatini unga ega bo’lgan ko’nikma va qobiliyatlari belgilaydi. Shu bilan birga, ularni rivojlantirish mumkinligini tushunish juda muhim, chunki O’qituvchi o’z ustida qancha ko’p ishlasa, shunchalik ko’p turli xil maqsadlarga erisha oladi. Perseptiv qobiliyat (keyingi o’rinlarda hissiy idrok deb yuritiladi) ni shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqishda va bu jarayon qanday bosqichlardan iboratligi haqida bilish zarur.

Shuningdek, ularni rivojlantirish bo’yicha har bir kishi foydalanishi mumkin bo’lgan bir nechta tavsiyalar mavjud.

Qobiliyatlar.

Butun dunyo ilmiy tafakkuri insonda uning intellektual rivojlanishini tavsiflovchi yangi bilim, ko’nikma va malakalarni shakllantirishning eng yuqori pog’onasini nima tashkil etishi haqida jiddiy bahs-munozaralar olib borilmoqda. Ba’zi tadqiqotchilar ko’nikmalar muhimroq desa, boshqalari esa ko’nikmalar muhimroq ekanligini ta’kidlaydi.

☒ Qobiliyat - bu har qanday harakatni shakllantirishning eng yuqori darajasi deb atash mumkin.

☒ Perseptiv qobiliyat - bu ongli ravishda amalga oshiriladigan va hali shakllanishning eng yuqori darajasiga chiqmagan idrok qilish qobiliyati.

U tashqi olamni va muhitni sezish, idrok etish bilan birgalikda kuzatuvchanlik mahoratini ham shakllantiradi. O'qituvchining shijoati natijasida rivojlanadi, takomillashadi. O'qituvchi o'quvchining psixologiyasini, psixik holatini o'ziga singdirib idrok etadi, sinf jamoasining holatiga pedagogik vaziyatiga odilona baho beradi.

Perseptiv qobiliyatni rivojlantirish mexanizmlari.

Qobiliyatni rivojlantirish uchun turli metod va usullar mavjud. Aynan qobiliyatlar ichida perseptiv (keyingi o'rinlarda hissiy idrok deb yuritiladi) qobiliyatni rivojlantirish mexanizmlari quyidagicha

Mexanizm (yun. mechane)
- qurol, inshoot

Qobiliyatlarni rivojlantiruchi mexanizmlar deganda qobiliyatni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan usulublar. Uslublar esa qurollar sifatida qaraladi. Uslub, vositalar esa qurollardir. Ular quyidagicha:

Hissiy o'yinlar turli xil his-tuyg'ularni oshirishga yordam beradi.

"quvonch"

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lmish talaba o'zining his-tuyg'usiga e'tibor berishi va quvonch yoki boshqa hissiy tuyg'ularini qanday boshdan kechirishlarini tasvirlashlari tavsiya etiladi. Ya'ni ichki bilish olamini his qildirga olishi tavsiya etiladi. O'yinning har bir ishtirokchisi o'z iborasini shunday boshlaydi:

Quvonch bu ...


Ushbu o'yin talabalarga ijobiy daqiqalarga e'tibor berishga va yoqimli his-tuyg'ularni boshdan kechirishga va uni idrok qilishga yordam beradi. Boshqa bir tomondan talabada empatiyani qisman shakllantiradi.

Masalan, inson muayyan maqsadni ko'zlagan holda qandaydir harakatni bajarishga o'rgansa, u avvalo uni imkon qadar ongli ravishda bajaradi, diqqatini har bir oraliq qadamga qaratadi va har bir qadam ongda saqlanadi. Harakatni o'zlashtirish jarayoni amalga oshiriladi va rivojlanadi. Demak, avvalo, perseptiv qobiliyat shakllanadi.

6-3-5 metodi

Metodning maqsadi: belgilangan mavzuda iloji boricha ko'proq miqdorda g'oyalarni kiritish, yozib qo'yish va sistemalashtirishga yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarda sinfda ishlash ko'nikmasini, o'zaro hamjihatlik, bir-biriga hurmat tuyg'usini tarbiyalaydi. Ushu metod yordamida talabada fikrlash, guruh bo'lib ishlash, savollarga javob berish uchun idrok qilish qobiliyatini mustahkamlaydi. A - chizmada quyidagicha ko'rsatilgan:

A – chizma



Bundan tashqari, talaba muntazam ravishda mashq qilsa va o'z ustida ishlashni davom ettirsa, uning qobiliyati yaxshilanadi. Harakatni bajarish vaqti qisqaradi va oraliq bosqichlarning ayrimlari ongsiz ravishda, avtomatik tarzda bajarila boshlaydi. Natijada, harakatni bajarishda va to'liq qobiliyat shakllantirishda mexanizmlar ishga tushadi va sinfda ishlash ko'nikmasini rivojlantirishda xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa shuki, masalan, bola o'qishni o'rgansa, dastlab alohida harflardan so'zlarni "yasashi" qiyin bo'ladi va bu mahoratni o'zlashtirish ko'p kuch va vaqt talab etadi. Ammo, kattalar o'qishi jarayonida harflar va so'zlarni avtomatik ravishda o'qiydi, va faqat semantik jihatini nazorat qiladi. Shunday ekan, bo'lajak o'qituvchilar ya'ni talabalar ham o'z ustida ishlasa, kuzata olsa, sinchkovlik qobiliyatini ishga solsa, e'tiborni kuchaytirsas, ichki olamini harakat qilishiga yo'l ochib bersa, ongida bo'lgan vaziyatlarni analiz qilsa unda qobiliyati (persektiv) rivojlanadi.

Bu shuni anglatadiki, uzoq va doimiy mashqlar va mashg'ulotlar tufayli mexanizmlar kuchayaveradi. Takrorlash va uni avtomatlashtirish orqali shakllantirish natijasida qobiliyat shakllanadi. Kishida qobiliyat borligining ko'rsatkichi shundaki, u biror harakatni bajarishdan oldin uni qanday aniq bajarishi haqida oldindan o'ylamaydi, balki uni bajarayotganda aniq va tez harakat qiladi.

Perseptiv qobiliyatni rivojlantirish juda ko'p vaqt talab qiladigan juda uzoq jarayon. Ya'ni, murakkab ko'pincha bir necha yil davom etadi. Qobiliyatlarni yaxshilash esa, bu odatda insonning butun hayoti davomida sodir bo'ladi. Psixologiya qobiliyatlar haqida, inson o'z xatti-harakatlarining sabablarini ko'rsa, o'zining haqiqiy niyatlari bilan ko'proq tanishadi, u o'z fikrlari va harakatlarini idrok eta oladi va tushuna boshlaydi, natijada, boshqalarnikini yaxshiroq his qila boshlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh Mirziyoyev “ O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni, 06. 11. 2020 - yildagi P F - 6108 - son
2. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston”, 2017
3. F. R. Abdurahmonov, Z. E. Abdurahmonova “KASB PSIXOLOGIYASI”, Toshkent, 2018
4. Klimov Ye. A. «Obshaya psixologiya». – С p b., Piter, 2001
5. Radugina A. A. Pedagogika i psixologiya. - M., 2007.
6. Rubinshteyn S. L. Основы обhey psixologii. – S p b: Piter, 2007. N. S. Safayev, N. A. Mirashirova, N. G. Odilova “Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti”: darslik. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.
7. Kamolova Ozodaxon Muzaffar qizi “O‘qituvchi hamda ota-ona o‘rtasidagi muloqot jarayonining turli unsurlari”, Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences: a collection scientific works of the International scientific conference, ITALIA, March, 2023.
8. А. Гомезо “ Атлас по Психологии” Питер, 2001-год
9. Мамажонов, Р. А., & Ахунов, И. И. (2020). ҲАРБИЙ-ВАТАНПАРВАРЛИК ТАРБИЯСИДА БАДИИЙ АДАБИЁТ, КИНО, ТЕАТР ВА ТАСВИРИЙ САНЪАТНИНГ АҲАМИЯТИ. Интернаука, (22-3), 64-66.
10. Мамажонов, Р. А., Тилаволдиев, Ш. Х., & Тўхтаназаров, И. И. (2020). ЁШЛАРНИНГ ҲАРБИЙ-ВАТАНПАРВАРЛИК ТАРБИЯСИДА ЖАНГОВАР ВА МЕҲНАТ ШУХРАТИ МУЗЕЙЛАРИНИНГ ЎРНИ. Интернаука, (21-3), 74-75.
11. Akramovich, M. R. (2023). Patriotism and its Importance in Involving Young People in the Armed Forces. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 17, 31-33.
12. Akramovich, M. R. (2023). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PROFESSIONAL DIRECTION OF YOUNG PEOPLE.
13. Мамаджонов, Р. (2023). “VII-VIII ASRLARDA ARAB XALIFALIGI ISTILOSIGA QARSHI KURASHDA MAHALLIY HUKMDORLARNING O ‘RNI VA ROLI” MAVZUSIGA OID INGLIZ TILLI TADQIQOTLAR TAHLILI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/5).

14. Siddiqov, B. S., & Mexmonaliyev, S. N. (2022). PEDAGOGIK AMALIYOTNING BO 'LAJAK O 'QITUVCHINING KASBIY TAYYORGARLIK FAOLIYATIDA TUTGAN O 'RNI. Academic research in educational sciences, 3(1), 10-16.

15. Siddikov, B. S. (2023). MORAL VIEWS OF HUSSAIN VOIZ KOSHIFI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4-2), 39-42.

MAZMUNI, T. M. A. J. V. Sh. N. Mexmonaliyev–Farg 'ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti SS Evatov–Farg 'ona davlat universiteti o'qituvchisi OA Tursunov–Farg 'ona politexnika instituti akademik litsey o'quvchisi. FARG 'ONA DAVLAT UNIVERSITETI, 275.

Elektron pochta manzillar:

1. <http://books.google.co.uz/books/S.K.Mangal>
2. www.tdpu.uz
3. www.pedagog.uz
4. www.ziyonet.Uz
5. www.lex.uz
6. www.bilim.uz
7. www.hikmatlar.uz